

**O‘ZBEK ADABIYOTINING IFTIXORI:  
QODIRIY HAYOT YO‘LI VA O‘LMAS MEROSI**

*Ahliddinova Xushnozaxon,  
Mirakmalova Dilnoza,  
Mirqodirov Mirolim*

**Annotatsiya:** Ushbu tezisdagi Abdulla Qodiriyning hayoti va ijodi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Uning asarlarida realizm, ijtimoiy muammolar va milliy uyg‘onish g‘oyalari yoritilgan.

**Аннотация:** В работе анализируются жизнь и творчество Абдуллы Кадыри. Рассматриваются его произведения с точки зрения реализма, социальных проблем и национального возрождения.

**Annotation:** This thesis examines the life and works of Abdulla Qodiriy, focusing on realism, social issues, and national awakening reflected in his writings.

**Kalit so‘zlar:** Abdulla Qodiriy, jadidchilik, realizm, roman, o‘zbek adabiyoti, milliy uyg‘onish, ijtimoiy tanqid

**Ключевые слова:** Абдулла Кадыри, джадидизм, реализм, роман, узбекская литература, национальное возрождение, социальная критика

**Keywords:** Abdulla Qodiriy, Jadidism, realism, novel, Uzbek literature, national awakening, social criticism

### **Kirish**

XX asr boshlarida o‘zbek adabiyotida yuz bergan tub burilishlar bevosita jadidchilik harakati va uning namoyandalari bilan bog‘liqdir. Ana shu davrda milliy adabiyotning taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan ijodkorlardan biri - Abdulla Qodiriy hisoblanadi. U o‘zbek romanchiligi asoschisi sifatida nafaqat badiiy tafakkurni yangi bosqichga olib chiqdi, balki millatning ijtimoiy ongini uyg‘otishda ham muhim rol o‘ynadi.

Qodiriy ijodida realizm, tarixiylik va ijtimoiy tanqid uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi. Adib asarlarida inson taqdiri, jamiyat muammolari va ma‘rifat g‘oyalari markaziy o‘rin egallaydi.

### **Adibning hayoti va ijtimoiy muhit**

Abdulla Qodiriy 1894-yil Toshkent shahrida bog‘bon oilasida tug‘ilgan bo‘lib, uning bolaligi murakkab ijtimoiy sharoitda kechgan. Adib o‘z tarjimai holida shunday yozadi:

“Qornim oshg‘a to‘ymag‘onidan, ustum tuzukroq kiyim ko‘rmag‘onidan bildimki, biz kambag‘al oilada yashar ekanmiz.” Mazkur iqtibos yozuvchining bolalik davridagi ijtimoiy tengsizlikni chuqur his qilganini ko‘rsatadi. Aynan shu hayotiy

tajriba uning keyingi ijodida realizmning kuchli bo‘lishiga zamin yaratgan.

Qodiriy jadidchilik g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlagan holda, jamiyatni isloh qilish, ilm-ma’rifatni targ‘ib etish yo‘lida faoliyat yuritdi. Uning publitsistik chiqishlari, xususan, “Yig‘indi gaplar” maqolasi, o‘z davri uchun keskin tanqidiy ruhda bo‘lib, natijada u 1926-yilda qamoqqa olinadi.

1937–1938-yillardagi siyosiy qatag‘onlar davrida esa adib nohaq ayblanib, 1938-yilda qatl etiladi. Bu holat uning hayoti fojeali yakun topganini ko‘rsatadi va ijodkor shaxsining jasoratini yana bir bor tasdiqlaydi.

### **Dramaturgiya: ijtimoiy tanqidning boshlanishi**

Qodiriyning dramaturgiyadagi ilk tajribasi -“Baxtsiz kuyov” (1915) asari hisoblanadi. Ushbu drama Mahmudxo‘ja Behbudiy ning “Padarkush” asari ta’sirida yaratilgan bo‘lib, unda jamiyatdagi ortiqcha dabdaba va isrofgarchilik keskin tanqid qilinadi. Asarda ilgari surilgan quyidagi fikr muhim ahamiyatga ega:

“To‘yga isrof qilmoq bid’atdur, o‘g‘ul o‘qutmoq esa farzdur.”

Bu g‘oya jadidchilik mafkurasining asosiy tamoyillaridan biri - ma’rifatni ustuvor qo‘yish zarurligini ifodalaydi.

### **Hikoyachilik: realizm va ijtimoiy muammo**

Adibning “Juvonboz” (1914) hikoyasi jamiyatdagi axloqiy tanazzulni ochib berishga qaratilgan. Qodiriy bu asarda “milliy xuliganlik” va ma’naviy inqirozni tanqid qiladi.

“Shodmarg” hikoyasida esa insonning fikr erkinligi va dunyoqarash masalasi yoritiladi. Asar qahramoni Mulla Karim hoji obrazida adib quyidagi g‘oyani ilgari suradi: jamiyat taraqqiyoti uchun ochiq fikrlilik zarur.

“Jinlar bazmi” hikoyasi esa yozuvchining falsafiy qarashlarini aks ettiradi. Asarda real va mavhum olam uyg‘unlashib, insonning e’tiqodi va tasavvuri o‘rtasidagi murakkab munosabatlar yoritiladi.

### **Roman janrida yangi bosqich**

Qodiriy ijodining cho‘qqisi -“O‘tkan kunlar” romani hisoblanadi. Ushbu asar o‘zbek adabiyotida birinchi realistik roman sifatida e’tirof etiladi.

Roman syujeti orqali adib quyidagi masalalarni ko‘taradi:

- shaxs va jamiyat munosabati
- milliy an’analar va yangilanish o‘rtasidagi ziddiyat
- muhabbat va ijtimoiy to‘siqlar

Asarda “taqdir shamoli” motivi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu tushuncha inson hayotidagi tasodif va zarurat o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalaydi.

“O‘tkan kunlar” romani haqida adabiyotshunoslar shunday fikr bildiradi:

“Bu asar nafaqat badiiy, balki tarixiy va ijtimoiy hujjat sifatida ham qimmatlidir.”

Shuningdek, Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romani ham jamiyatdagi diniy mutaassiblik va adolatsizlikni ochib beradi.

“Obid ketmon” va ijtimoiy realizm

“Obid ketmon” qissasi yozuvchining yetuk davr mahsuli bo‘lib, unda oddiy dehqon obrazi orqali xalq hayoti chuqur tasvirlanadi.

Obid obrazi haqida quyidagicha xulosa qilish mumkin:

- u mehnatsevarlik timsoli
- u adolat va halollik tarafdori
- u jamiyatdagi o‘zgarishlarning bevosita ishtirokchisi

Qodiriy bu asarda tor mafkuraviy qarashlardan chiqib, umuminsoniy qadriyatlarni ilgari suradi.

### **Adib merosining ilmiy ahamiyati**

Abdulla Qodiriy o‘zbek adabiyotiga quyidagi yangiliklarni olib kirdi:

1. Realistik tasvir uslubini shakllantirdi
2. Roman janriga asos soldi
3. Milliy ong va o‘zlikni anglash g‘oyalarini rivojlantirdi

Adib ijodi bugungi kunda ham adabiyotshunoslikda muhim tadqiqot obyekti bo‘lib qolmoqda.

### **Xulosa**

Abdulla Qodiriy nafaqat o‘z davrining, balki bugungi kunning ham dolzarb ijodkoridir. Uning asarlari orqali o‘zbek xalqining tarixiy taqdiri, ma’naviy qadriyatlari va ijtimoiy muammolari chuqur badiiy ifodasini topgan.

Qodiriy merosi - bu millatning ma’naviy xazinasini bo‘lib, u kelajak avlodlar uchun ham bebaho manba bo‘lib qoladi.